

## **AZIM HOJIYEV LUG‘ATSHUNOS OLIM**

### **Mamatqulov Azizbek**

Guliston davlat universiteti “O‘zbek tilshunosligi” kafedrası doktoranti

#### **ANNOTATSIYA**

*Ushbu maqolada o‘zbek tilshunosligida Eski o‘zbek adabiy tili davridan to XX asrning yarmigacha yaratilgan lug‘atlar, shuningdek, akademik Azim Hojiyevning o‘zbek tili leksikografiyasining rivojiga qo‘shgan hissasi haqida so‘z boradi. Maqolada olimning XX asr o‘rtalarida yaratgan sinonimik lug‘atlari va sinonimik qatordagi so‘zlarning uslubiy ma‘no aks ettirishi, shuningdek, lingvistik atamalarning to‘g‘ri qo‘llanishiga doir ilmiy qarashlari va lug‘atlari bilan birgalikda istiqlol davrida yaratilgan o‘zbek lotin alifbosidagi imlo lug‘atlarining tuzilishi va ushbu lug‘atlarda olimning lug‘atshunoslikka doir ilmiy qarashlarini aks ettiriladi.*

**Kalit so‘zlar:** *tub so‘z, termin, atama, arxaik, leksika*

#### **АННОТАЦИЯ**

*В данной статье рассказывается о словарях, созданных в узбекском языкознании с периода староузбекского литературного языка до середины XX века, а также о вкладе академика Азима Гаджиева в развитие лексикографии узбекского языка. В статье рассматриваются словари синонимов, созданные ученым в середине XX века, и отражение стилистического значения слов в синонимическом ряду, а также научные взгляды и словари по правильному употреблению лингвистических терминов, созданные в период независимость. В этих словарях отражены структура орфографических словарей на узбекской латинице и научные взгляды учёных на лексикологию.*

**Ключевые слова:** *корень слова, термин, термин, архаика, лексика.*

#### **KIRISH**

Ma‘lumki, o‘zbek tilini ilmiy asosda o‘rganishga oid ilk ma‘lumotlar leksikografiya sohasidagi qadimgi lug‘atlarda kuzatiladi. Lug‘atchilik o‘zbek tilining shakllanish bosqichlarining har birida tilshunos olimlar va ziyolilar tarafidan rivojlantirilib borilgan. Mahmud Koshg‘ariy XI asrda turkiy so‘zlarning boyligini arab tilida izohlagan bo‘lsa, bu an‘ana keyingi davrlarda Mahmud Zamaxshariyning “Asos ul-balog‘a”, “Muqddimatul adab” (XII asr), Toile Imon Xiraviyning “Badoye‘ ul-lug‘at” (XV asr), Muhammad Yoqub Chingiyning “Kelurnoma” (XVII asr), Muhammad Rizo Xoksoning “Muntaxab ul-lug‘ot” (XVIII asr), Mirzo Mehdixonning “Sangloh” (XVIII asr), Sulaymon Buxoriyning “Lug‘ati chig‘atoyi va turki usmoniy” (XIX asr) hamda muallifi noma‘lum bo‘lgan “At-tuhfat uz-zakiyati f-

il-lug‘at it-turkiya” (XIII asr), “Abushqa” (XVI asr) kabi turkiy lug‘atchilikning ko‘plab noyob durdonalari yaratilishi bilan davom etib keldi va bu lug‘atlar tilshunos olimlar tomonidan yetarlicha tadqiq etildi.

O‘zbek tilshunosligida lug‘atchilik XX asrda ham olimlarimiz tarafidan rivojlantirildi. Akademik Azim Hojiyev ana shunday tilshunos olimlar sirasiga kiradi.

## MUHOKAMA VA NATIJALAR

Tilshunoslik terminlarining ilmiy faoliyatda o‘rni muhim sanaladi. Ulardan to‘g‘ri foydalanish jiddiy masala hisoblanadi. Azim Hojiyevning leksikografiyaga oid ilmiy ishlari, asosan, o‘zbek tilidagi sinonimlar, faol so‘zlar, imlo, tilshunoslik terminlari kabi ishlarini o‘z ichiga qamrab oladi. Azim Hojiyevning 1963-yilda o‘zbek tilshunosligida birinchilardan bo‘lib sinonimlar lug‘atini tuzdi. O‘zbek tilshunosligida hali shu yo‘nalishlarda izohli lug‘atlar tuzilmagan bir paytda bu juda muhim tadqiqot ishi bo‘lib xizmat qildi. “O‘zbek tili sinonimlarining qisqacha lug‘ati” kitobi o‘zbek tilshunosligida, nafaqat, sinonimlarning lug‘ati bo‘lib xizmat qildi, balki sinonimlarning uslubiy bo‘yoqdorligi haqida ham muhim manba bo‘lib xizmat qildi.

Azim Hojiyev ushbu kitobida, asosan, o‘zbek tilidagi faol so‘zlarni kiritadi. Kitobda olim sinonimik qatorga kiruvchi so‘zlarning barchasi uchun umumiy bo‘lgan ottenka mavjud bo‘lishi kerakligini ta’kidlaydi. Misol uchun, *qaramoq*, *boqmoq*, *tikilmoq*, *termilmoq* ushbu so‘zlar sinonimik qatordan joy olgan va ularni birlashtiruvchi ma’no mavjud, ammo ulardan faqat *qaramoq* va *boqmoq* so‘zlari to‘laligicha sinonim bo‘lishi mumkin, *tikilmoq* va *termulmoq* so‘zlari esa o‘zidagi ma’noni bo‘rttirishga xizmat qiladi[4] deb ta’rif beradi.

Olimning o‘zbek tili sinonimlariga bag‘ishlangan keyingi davrdagi lug‘atlari ham diqqatga sazovor. 1974-yilda Azim Hojiyevning “O‘zbek tili sinonimlarining izohli lug‘ati” kitobi nashrdan chiqdi. Ushbu kitobda olim sinonimik qatordagi so‘zlarning uslubiga ko‘ra qo‘llanishi, kam yoki ko‘p ishlatiladigan so‘zlar, sinonimik qatordagi bosh so‘z haqida ham fikr bildirib o‘tilgan[8]. Lug‘at leksik sinonim so‘zlardan tashlik topgan bo‘lib, bir asosdan tashkil topgan yasama so‘zlar kiritilmagan. Masalan, *rahimsiz*, *berahim* kabi. Azim Hojiyevning sinonimlarga bag‘ishlangan lug‘ati oliy o‘quv yurtlarida tadqiqotchilar, talabalar uchun hali hamon xizmat qilmoqda.

Azim Hojiyev tilshunoslikdagi terminlarning to‘g‘ri qo‘llanishi yoki noo‘rin qo‘llanishi borasida qator maqolalar nashr ettirgan. Umuman olganda, terminologiyaga oid barcha ishlarning muvaffaqiyatli hal etilishida har bir sohaga oid terminlarni to‘la qamrab olgan terminologik lug‘atlarni, ayniqsa, izohli terminologik

lugʻatlarni tuzish va nashr etish muhim ahamiyat kasb etadi. Bunda olimning tilshunoslik terminlarining notogʻri qoʻllanishiga eʼtirozlar bildirgan [5].

Olimning 1985-yilda oʻzbek tilshunosligida ancha mukammal boʻlgan “Lingvistik terminlarning izohli lugʻati” kitobi nashr etildi va u tilshunoslik terminologiyasi yoʻnalishida muhim manba boʻldi.

Azim Hojiyevning 1993-yilda nashr etilgan “Tilshunoslik atamalarining ruscha-oʻzbekcha qisqacha lugʻati”, 2002-yilda qayta nashr etilgan “Tilshunoslik terminlarining izohli lugʻati” kitoblari oʻzbek tilshunosligi leksikografiyasi sohasida yangilik boʻldi.

“Tilshunoslik terminlarining izohli lugʻati” quyidagi tartibda tuzilgan: I. Soʻzboshi; II. Lugʻatning hajmi va tuzilishi; III. Lugʻat maqolasi (har bir lugʻat maqolasi bosh soʻz sifatida lingvistik terminini keltirish bilan boshlangan). Agar termin boshqa tildan oʻzlashgan boʻlsa, qavs ichida qaysi tildan, qanday soʻz yoki til unsurlari asosida oʻzlashganligi koʻrsatilgan. Ushbu lugʻatda ruscha terminlarning oʻrniga muqobil oʻzbekcha variantdagi terminlardan foydalanilgan. Avvalgilaridan farqli ravishda toʻldirilgan va qayta ishlangan.

Azim Hojiyev 1981-yilda oʻzbek tilida tuzilishi dolzarb boʻlgan “Oʻzbek tilining izohli lugʻati” da tuzuvchilar safida lugʻatning I, K, N qismlarini tuzishda qatnashadi. Tilshunosligimizda izohli lugʻatni takomillashtirish borasida ilmiy izlanishlar olib borib, oʻzbek tilida lugʻat tuzuvchilar uchun yoʻriqnoma ishlab chiqdi. “Oʻzbek tilining izohli lugʻati”ni tuzishda ham jonbozlik koʻrsatgan.

2006-2008-yillarda yaratilgan besh tomlik “Oʻzbek tilininh izohli lugʻati” oʻz ichiga 80000 soʻzni qamrab olgan boʻlib, lugʻatda shevaga oid soʻzlarni, tarixiy va arxaik leksikani ham koʻrishimiz mumkin. Lugʻat tuzilishi va undan foydalanish qismini Azim Hojiyev yozgan. Lugʻatda berilyotgan atamalar esa XX asrda oʻzbek adabiyotida qoʻllanganligi bilan asoslangan.

Azim Hojiyev “Oʻzbek tilining izohli lugʻati”ni tuzish prinsiplarini ishlab chiqar ekan, soʻzlarni izohlashning olti qatlamini ochib beradi. Bular: bosh soʻz; lugʻat maqolasining bosh soʻzdan keying komponenti, bosh soʻzning etimologiyasi haqidagi maʼlumot; lugʻat maqolasining etimologik maʼlumotdan keyingi bosh soʻzga uning maʼnosi oldidan beriladigan grammatik, uslubiy va havola etuvchi qaydlar; izohlanuvchi birliklar (bosh soʻz va turgʻun iboralar) maʼnosini belgilash va qayd etish; lugʻat maqolasining eng asosiy qismi izohlanuvchi birliklar maʼnolariga beriladigan izoh; lugʻat maqolasining soʻnggi komponenti izohlanuvchi birlik maʼnosi izohidan keyin beriladigan illyustrativ misollar [1].

Azim Hojiyev oʻzbek tilida imlo masalalari boʻyicha ham leksikografik asarlar yaratdi. Bunday lugʻat soʻzlarning mavjud imlo qoidalariga binoan toʻgʻri yozilish

shaklini qayd etadi. 1929-yildan to hozirgi kungacha kirill va lotin alifbolariga asoslangan o'zbek yozuvida o'zbek tilining turli hajmdagi 20 dan ortiq imlo lug'ati yaratilgan [1]. 1995-yilda "O'zbek tilining imlo lug'ati" kitobi nashrga chiqdi. 2003-yilda esa Shavkat Rahmatullayev va Azim Hojiyev birgalikda "O'zbek tilining imlo lug'atini yaratishdi. Ushbu lug'atda o'zbek tilida lotin yozuviga asoslangan alifbo joriy qilingandan so'ng tovush va harf munosabatiga bag'ishlangan qismi qayta yozildi. Lug'at hozirgi o'zbek tilining imlo qoidalariga mos ravishda ishlab chiqilgan va asosan eng xato qilinishi mumkin bo'lgan tub so'zlar kiritilgan.

Til doim harakatda bo'lgani uchun so'zlarning umumiste'moldagi holati ham o'zgarib boradi. Bir so'zning anglatgan ma'nosi saqlanib shakli o'zgarishi mumkin yoki ma'nosi bilan birga eskirishi va iste'moldan umuman chiqishi mumkin. Ayniqsa istiqbol yillaridan so'ng o'zbek tiliga kirib kelgan so'zlar va shu davrda faol iste'molda bo'lgan so'zlarning lug'atini shakllantirish, ya'ni muayyan bir tilning ma'lum davrida faol qo'llaniladigan so'zlarning izohli lug'atini tuzish tilshunoslikdagi muhim masalaga aylandi. Shu ababdan A.Hojiyev, A.Nurmonov, S.Zaynobiddinov, R.Kokren, M.Saidxonov, A.Sobirov, D.Quronovlar tarafidan 2001-yilda "Hozirgi o'zbek tilining faol so'zlarining izohli lug'ati" yaratildi. Azim Hojiyev bu izohli lug'atning tuzilishi va foydalanish tartibini shakllantirgan. Unga ko'ra lug'atning har bir maqolasi uch qismga bo'lib ko'rsatilgan: 1) ma'nolari belgilanib iohlanuvchi birlik; 2) lug'aviy birlikning qayd etiluvchi ma'nosi; 3) shu ma'noga beriluvchi izoh [3], Ushbu lug'at faqat hozirgi o'zbek tilida faol qo'llanilayotgan yoki faollashishi kutilayotgan so'zlarni o'z ichiga oladi. Shuning uchun ham unda o'zbek tili tarixining muayyan bir davrida qo'llanilgan, hozirgi kunda esa iste'moldan chiqqan so'zlar aks etmagan. Shu bilan birga o'zbek tilida hozirgi paytda biroz kam qo'llanuvchi yangi kirib kelgan iqtisodga, texnikaga oid so'zlar ham kiritilgan. Bunday so'zlarni kiritishda ularning kelajakdagi qo'llanilishi nazarda tutilgan.

## **XULOSA**

Xulosa qilib aytganda, Akademik Azim Hojiyev faqatgina morfologiya va unga doir tushunchalar, xususan so'z va shakl yasalishi borasidagi ilmiy ishlar bilan chegaralanib qolmay, balki o'zbek ilmiy tilshunosligi rivojlanish taraqqiyotida leksikografiyaning shakllanishi uchun xizmat qiladigan ilmiy ishlar yaratgan. Olimning o'zbek tili sinonimlari, o'zbek tilining imlosi, lingvistik terminlarga doir lug'atlari ona tilimiz uchun, yosh tadqiqotchilar uchun, talabalar uchun xizmat qilib kelmoqda.

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR (REFERENCES):**

1. Normamatov S. Leksikografiya asoslari. O'quv qo'llanma. – T.: O'qituvchi, 2020. – B. 126.

2. Rahmatullayev Sh., Hojiyev A. O‘zbek tilining imlo lug‘ati. – Toshkent: O‘qituvchi, 1995. – 288-b.
3. Hojiyev A., Nurmonov A., Zaynobiddinov S. va boshq. Hozirgi o‘zbek tili faol so‘zlarining izohli lug‘ati. – T.: Sharq, 2001. – 336 b.
4. Ҳожиев А. Ўзбек тили синонимларининг қисқача луғати. – Т.: Фан, 1963. – Б. 228
5. Ҳожиев А. Ўзбек тилшунослигининг долзарб муаммолари (3-мақола) // Ўзбек тили ва адабиёти, 2006, 6- сон, 26-28 б.
6. Ҳожиев А. Лингвистик терминларнинг изоҳли луғати. –Т.: Ўқитувчи, 1985. – 144 б.
7. Ҳожиев А. Тилшунослик терминларнинг изоҳли луғати. –Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2002. – 168 б.
8. Ҳожиев А. Ўзбек тили синонимларининг изоҳли луғати. – Т.: Фан, 1974. – Б. 327